# III. QISHLOQ, O‘RMON VA BALIQCHILIK XO‘JALIGI

## 2024-yilning yanvar-mart oylarida Samarqand viloyatining qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi

Dastlabki ma’lumotlarga ko‘ra, 2024-yilning yanvar-mart oylarida qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi mahsulot (xizmat)larining umumiy hajmi 5 849,4 mlrd. so‘mni yoki 2023-yilning mos davriga nisbatan 103,4 % ni, shu jumladan, dehqonchilik va chorvachilik, ovchilik va ushbu sohalarda ko‘rsatilgan xizmatlar 5 531,8 mlrd. so‘mni (103,5 %), o‘rmon xo‘jaligi 243,3 mlrd. so‘mni (100,1 %), baliqchilik xo‘jaligi 8,9 mlrd. so‘mni (186,9 %) tashkil qildi. Respublika qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi tarkibida Samarqand viloyatining ulushi 12,9 % ni tashkil qildi.




**5 849,4 mlrd. so‘m**

| | | |
|---|---|---|
| 01 | 5 531,8 | **Dehqonchilik va chorvachilik, ovchilik va ushbu sohalarda ko‘rsatilgan xizmatlar** |
| 02 | 243,3 | **O‘rmon xo‘jaligi** |
| 03 | 8,9 | **Baliqchilik xo‘jaligi** |

**Qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi mahsulot (xizmat)lar hajmining o‘sish sur’ati**




**Shahar va tumanlar kesimida qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi mahsulot (xizmat)larining hajmi,** *mlrd. so‘m*



2024-yilning yanvar-mart oylarida shahar va tumanlar kesimida qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi mahsulot (xizmat)larining eng yuqori hajmi Urgut (783,2 mlrd. so'm) va Ishtixon (545,4 mlrd. so'm) tumanlarida qayd etildi. Aksincha kam hajmga ega hududlarga Kattaqo'rg'on (21,0 mlrd. so'm) va Samarqand (29,3 mlrd. so'm) shaharlarni keltirib o'tish mumkin.

**Qishloq xo'jaligi mahsulotlari yetishtirish hajmining xo'jaliklar toifalari bo'yicha taqsimlanishi**
*(umumiy hajmga nisbatan foiz hisobida)*

**Hosil yig'imi**. 2024-yilning yanvar-mart oylarida barcha toifadagi xo'jaliklar tomonidan 2,1 ming tonna sabzavot yetishtirildi.

**2024-yilning yanvar-martida xo'jalik toifalari bo'yicha asosiy turdagi dehqonchilik mahsulotlarini yetishtirish**

| | Fermer xo'jaliklari | | Dehqon va tomorqa xo'jaliklari | | Qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar | |
|---|---|---|---|---|---|---|
| | *ming tonna* | *o'sish sur'ati, foizda* | *ming tonna* | *o'sish sur'ati, foizda* | *ming tonna* | *o'sish sur'ati, foizda* |
| Sabzavotlar | 0,15 | 55,0 | 1,7 | 107,9 | 0,24 | 160,5 |



**Dehqonchilik**

2024-yilning yanvar-mart oylarida yetishtirilgan dehqonchilik mahsulotlarining hajmi 179,7 mlrd. so'mni yoki 2023-yilning mos davriga nisbatan 103,2 % ni tashkil etdi. Yetishtirilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlarining umumiy hajmida dehqonchilik mahsulotlarining ulushi 3,2 % ni tashkil qildi.

## Sabzavotlar

**Hajmi,** *ming tonna*




**O‘sish sur’ati,** *% da*




***yetishtirilgan mahsulotlarning xo‘jalik toifalari bo‘yicha taqsimlanishi, % da***




2024-yilning yanvar-mart oylarida barcha toifadagi xo‘jaliklar tomonidan 2,1 ming tonna sabzavotlar (2023-yilning yanvar-martiga nisbatan 104,5 %) yetishtirildi. Sabzavot yetishtirishda ko‘rsatkichlarini xo‘jaliklar toifalari bo‘yicha tahlil qilinganda, sabzavot yetishtirishda umumiy hajmidan 81,3 foizi dehqon va tomorqa xo‘jaliklar hissasiga to‘g‘ri kelishini ko‘rsatmoqda.

**Samarqand viloyati bo‘yicha**
**sabzavotlar**
**yetishtirish hajmi,** *tonna*





## Chorvachilik

2024-yilning yanvar-mart oylarida chorvachilik mahsulotlarini yetishtirish hajmi 5 352,2 mlrd. so'mni yoki 2023-yilning mos davriga nisbatan 103,5 % ni tashkil qildi. Yetishtirilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlarining umumiy hajmida chorvachilik mahsulotlarining ulushi 96,8 % ni tashkil etdi.

Chorvachilik sohasining ichki imkoniyatlarini oshirish bo'yicha chora-tadbirlarning izchil amalga oshirilib borilayotganligi, shuningdek, ularga davlat tomonidan tizimli yordam ko'rsatilib kelinayotganligi chorva mollari bosh soningining ko'payishiga, ichki iste'mol bozorlarini chorvachilik mahsulotlari bilan to'ldirishga imkon yaratdi.

2024-yilning yanvar-mart oylarida barcha toifadagi xo'jaliklar tomonidan tirik vaznda 70,0 ming tonna go'sht (2023-yilning yanvar-martiga nisbatan 3,3 % ga ko'p), 295,5 ming tonna sut (3,8 % ga ko'p), 212,2 mln. dona tuxum (5,8 % ga ko'p) va 451,5 tonna baliq (171,7 % ga ko'p ) ovlandi.



## Go‘sht (tirik vaznda)

**Hajmi,** *ming tonna*




**O‘sish sur’ati,** *% da*




***Ishlab chiqarilgan mahsulotlarning xo‘jalik toifalari bo‘yicha taqsimlanishi, % da***




**Fermer xo‘jaliklari** **Dehqon va tomorqa xo‘jaliklari** **Qishloq xo‘jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar**

2024-yilning yanvar-mart oylarida barcha toifadagi xo‘jaliklar tomonidan tirik vaznda 70,0 ming tonna go‘sht (2023-yilning yanvar-martga nisbatan 3,3 % ga ko‘p), yetishtirildi. Go‘sht yetishtirish ko‘rsatkichlari xo‘jaliklar toifalari bo‘yicha tahlil etilganda, go‘sht yetishtirish umumiy hajmidan 84,3 % dehqon va tomorqa xo‘jaliklari hissasiga to‘g‘ri kelganini qayd etish zarur.

### Samarqand viloyati bo‘yicha go‘sht (tirik vaznda) yetishtirish hajmi, *ming tonna*



## <u>Sut</u>

**Hajmi,** *ming tonna.*




**O‘sish sur’ati,** *% da*




***Yetishtirilgan mahsulotlarning xo‘jalik toifalari bo‘yicha taqsimlanishi,*** *% da*




**Fermer xo‘jaliklari**

**Dehqon va tomorqa xo‘jaliklari**

**Qishloq xo‘jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar**

2024-yilning yanvar-mart oylarida barcha toifadagi xo‘jaliklar tomonidan 295,5 ming tonna sut (2023-yilning yanvar-martiga nisbatan 3,8 % ga ko‘p) yetishtirildi. Sut yetishtirish ko‘rsatkichlarini xo‘jalik toifalari bo‘yicha tahlil qilinganda, sut yetishtirish umumiy hajmidan 92,5 foizi dehqon va tomorqa xo‘jaliklari hissasiga to‘g‘ri kelishini ko‘rsatmoqda.

**Samarqand viloyati bo‘yicha yetishtirilgan sut hajmi,** *ming tonna*



## Tuxum










2024-yilning yanvar-mart oylarida barcha toifadagi xo‘jaliklar tomonidan 212,2 mln.dona tuxum (2023-yilning yanvar-martiga nisbatan 5,8 % ga ko‘p) yetishtirildi. Tuxum yetishtirish ko‘rsatkichlari xo‘jalik toifalari bo‘yicha tahlil etilganda, tuxum ishlab chiqarish umumiy hajmidan 47, 1 foizi dehqon va tomorqa xo‘jaliklari hissasiga to‘g‘ri keldi.

### Samarqand viloyati bo‘yicha olingan **tuxum** yetishtirish hajmi, *mln dona*



## Baliq

**Hajmi, ming** *tonna*




**O'sish sur'ati,** *% da*




***Ishlab chiqarilgan mahsulotlarning xo'jalik toifalari bo'yicha taqsimlanishi***




2024-yilning yanvar-mart oylarida barcha toifadagi xo'jaliklar tomonidan 0,45 ming tonna (2023-yilning yanvar-martiga nisbatan 171,7 % ga ko'p) baliq ovlandi. Ovlangan baliqlar xo'jalik toifalari bo'yicha tahlil qilinganda, ovlangan baliq umumiy hajmidan 86,9 foizi fermer xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar hissasiga to'g'ri kelganini ta'kidlash lozim.

**Samarqand viloyati bo'yicha ovlangan baliq hajmi,** *tonna*



## Chorva mollari va parrandalar bosh soni




2024-yilning 1-aprel holatiga ko‘ra, yirik shoxli qoramollar bosh soni to‘g‘risidagi ma’lumotlarni xo‘jalik toifalari bo‘yicha tahlil qilar ekanmiz, yirik shoxli qoramollarning 4,9 % fermer xo‘jaliklari ulushiga, 94,7 % dehqon va tomorqa xo‘jaliklari, 0,4 % qishloq xo‘jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarga to‘g‘ri kelishini qayd etib o‘tish lozim, shunga mos ravishda qo‘y va echkilarning umumiy sonidan 7,1 % fermer xo‘jaliklariga, 87,4 % dehqon va tomorqa xo‘jaliklari 5,5 % qishloq xo‘jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarga to‘g’ri keladi, otlar umumiy sonidan 13,6 % fermer xo‘jaliklariga, 84,3 % dehqon va tomorqa xo‘jaliklari, 2,1 % qishloq xo‘jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarga to‘g‘ri keladi shuningdek, parrandalar umumiy sonidan 38,0 % fermer xo‘jaliklariga 43,2 % dehqon va tomorqa xo‘jaliklari, 18,8 % qishloq xo‘jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarga to‘g‘ri keladi.

## Yirik shoxli qoramollar

**Soni,** *ming bosh*




**O‘sish sur’ati,** *% da*




***Bosh sonining xo‘jalik toifalari bo‘yicha taqsimlanishi***




**Fermer xo‘jaliklari** **Dehqon va tomorqa xo‘jaliklari** **Qishloq xo‘jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar**

2024-yilning 1-aprel holatiga ko‘ra, barcha toifadagi xo‘jaliklarda:

- yirik shoxli qoramollarning umumiy soni 1 664,5 ming boshga yetdi.
- yirik shoxli qoramollar bosh soni 2023-yilning 1-aprel holatiga nisbatan 23,1 ming boshga (1,4 %) ko‘paydi.
- yirik shoxli qoramollar bosh sonining 94,7 % i dehqon va tomorqa xo‘jaliklariga to‘g‘ri keldi.

**Samarqand viloyati bo‘yicha yirik shoxli qoramollarning bosh soni,** *ming bosh*



## Sigirlar

**Soni,** ***ming bosh***




**O'sish sur'ati,** ***% da***




***Bosh sonining xo'jalik toifalari bo'yicha taqsimlanishi***




2024-yilning 1-aprel holatiga ko'ra, barcha toifadagi xo'jaliklarda:

- sigirlarning umumiy bosh soni 700,9 ming boshga yetdi.

- sigirlarning bosh soni 2023-yilning 1-aprel holatiga nisbatan 2,5 ming boshga (0,4 %) ko'paydi.

- sigirlar bosh soningin 94,6 % i dehqon va tomorqa xo'jaliklariga to'g'ri keldi.

**Fermer xo'jaliklari** **Dehqon va tomorqa xo'jaliklari** **Qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar**

**Samarqand viloyati bo'yicha sigirlarning bosh soni,** *ming bosh*



## Qo‘y va eshkilar

**Soni, *ming bosh***




**O‘sish sur’ati, *% da***




***Bosh sonining xo‘jalik toifalari bo‘yicha taqsimlanishi***




2024-yilning 1-aprel holatiga ko‘ra, barcha toifadagi xo‘jaliklarda:

- qo‘y va echkilarning umumiy bosh soni 2 600,8 ming boshga yetdi.
- qo‘y va echkilarning bosh soni 2023-yilning 1-aprel holatiga nisbatan 67,4 ming boshga (2,7 %) ko‘paydi.
- qo‘y va echkilar bosh sonining 87,4 % i dehqon va tomorqa xo‘jaliklariga to‘g‘ri keldi.

**Samarqand viloyati bo‘yicha**
**qo‘y va echkilarning bosh soni, *ming bosh***



## Otlar

**Soni,** ***bosh***




**O‘sish sur’ati,** ***% da***




***Bosh sonining xo‘jalik toifalari bo‘yicha taqsimlanishi***




Fermer xo‘jaliklari — Dehqon va tomorqa xo‘jaliklari — Qishloq xo‘jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar

2024-yilning 1-aprel holatiga ko‘ra, barcha toifadagi xo‘jaliklarda:

- otlarning umumiy soni 28 243 boshga yetdi.
- otlar bosh soni 2023-yilning 1-aprel holatiga nisbatan 492 boshga (1,8 % ) ko‘paydi.
- otlar bosh sonining 84,3 % i dehqon va tomorqa xo‘jaliklariga to‘g‘ri keldi.

**Samarqand viloyati bo‘yicha otlarning bosh soni,** *bosh*

